

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIASI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.27.09.2024.San.54.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIASI**

**MUSTAFINA YEKATERINA ILINICHNA**

**O‘ZBEKISTON KOMPOZITORLARINING MUSTAQILLIK  
YILLARIDAGI CHOLG‘U IJODIDA TARIXIY O‘TMISH TIMSOLLARI**

**17.00.02 – Musiqa san‘ati**

**SAN‘ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**San‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по искусствоведению**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
in art history**

**Mustafina Yekaterina Ilinichna**

О‘zbekiston kompozitorlarining Mustaqillik  
yillaridagi cholg‘u ijodida tarixiy o‘tmish timsollari ..... 3

**Мустафина Екатерина Ильинична**

Образы исторического прошлого  
в инструментальном творчестве композиторов  
Узбекистана в годы Независимости ..... 23

**Mustafina Ekaterina Ilinichna**

Images of the historical past in instrumental  
creativity composers of Uzbekistan  
during the years of Independence ..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 49

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.27.09.2024.San.54.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

**MUSTAFINA YEKATERINA ILINICHNA**

**O‘ZBEKISTON KOMPOZITORLARINING MUSTAQILLIK  
YILLARIDAGI CHOLG‘U IJODIDA TARIXIY O‘TMISH TIMSOLLARI**

**17.00.02 – Musiqa san’ati**

**SAN‘ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2024.2.PhD/San.67 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.konservatoriya.uz](http://www.konservatoriya.uz)) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mamadjanova Elnora Ulmasovna**  
san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Azimova Arzu Nishanovna**  
san’atshunoslik fanlari doktori, professor

**Axundova-Dadashzade Zumrud Araz qizi (Ozarbayjon)**  
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.27.09.2024.San.54.01 raqamli Ilmiy kengashning \_\_\_\_\_2025-yil “\_\_”\_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100027, Toshkent sh., Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko‘chasi, 1. Tel.: (99871)239-46-53; faks: (99871) 244-53-20; e-mail: info@konservatoriya.uz.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat konservatoriyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100027, Toshkent sh., Shayxontohur tumani, B.Zokirov ko‘chasi, 1. Tel.: (99871) 239-46-53; faks: (99871) 244-53-20; e-mail: info@konservatoriya.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_”\_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil “\_\_”\_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_raqamli reyestr bayonnomasi).

**T.B.G‘ofurbekov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
san’atshunoslik fanlari doktori, professor

**B.Sh.Ashurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,  
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**S.B.Qosimxo‘jayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, san’atshunoslik fanlari  
nomzodi, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda milliy qadriyatlarni tiklash, o‘tmishning buyuk mutafakkirlari merosi, musiqa san’atida tarixiy obrazlarni gavdalantirish masalalari o‘zining keng qamrovligi bilan ahamiyatlidir. Tarixiy o‘tmish timsollari tarixchilar, faylasuflar, madaniyatshunoslar va san’atshunoslar e’tiborini jalb qilib, tarixiy o‘tmish timsollarini zamonamizning estetik ehtiyojlari, keng ko‘lamdagi o‘zaro aloqalar va avlodlar davomiyligi sharoitida milliy madaniyatlarni muayyan darajada o‘rganilganligi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon musiqashunoslik fanida tarixiy o‘tmish obrazlarini xalqning ma’naviy-estetik qadriyatlarini tiklashni aktuallashtirish nuqtayi nazaridan o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi. Kompozitorlar tomonidan tarixiy o‘tmish obrazlarini gavdalantirish asarlarning badiiy konsepsiyalarini ochib berishga qaratilgan keng ko‘lamli individual yondashuvlar bilan tavsiflanadi. Bunda olimlar oldida ilmiy tafakkurni rivojlantirishning yangi yo‘llari ochiladi. Kompozitorlar ijodiyotida tarixiy o‘tmish obrazlarini o‘rganish bilan bog‘liq murakkab masalalarni aniqlash turli fanlararo yutuqlarni hisobga oladigan ilmiy-metodologik tamoyillarni qo‘llash taqozo etmoqda.

So‘nggi o‘n yillikda mamlakatimizda moddiy va nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash, milliy musiqa san’atini yanada rivojlantirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. “Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lganini ko‘ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me’moriy obidalar, nodir qo‘lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi”<sup>1</sup>. Bu borada kompozitorlar ijodidagi tarixiy o‘tmish timsollarini, boy madaniy merosning tub asosini musiqa san’ati orqali tadqiq etish dolzarb asalalardan biridir.

Mazkur dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, ya’ni aynan 2017-yil 8-avgustdagi “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3178-son, 2018-yil 26-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3920-son, 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son qarorlarida, shuningdek, zamonaviy jamiyatning ma’naviy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish yo‘lidagi ilmiy izlanishlardan biridir.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020. Elektron resurs // <https://www.uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/525>.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar dasturining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy va ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tarixiy xotira va obrazlar masalalarini o‘rganishning tarixiy-nazariy, estetik-falsafiy, madaniy jihatlarining umumiy masalalari turli fanlar sohalari vakillari bo‘lgan D. Barash, P. Xatton, V. Lektorskiy, N. Mislives, L. Repina, G. Gerasimov, I. Savelyeva, A. Poletayev, J. Toshinko, T. Rasulova kabi olimlar asarlarida ko‘rib chiqilgan<sup>2</sup>.

Musiqiy obrazni gavdalantirish, janr, mavzular majmui, musiqiy ifodalashning turli vositalari, yozuv texnikasi masalalari A. Soxor, Y. Kremlyov, B. Asafyev, V. Medushevskiy, Y. Nazaykinskiy, M. Smirnov, L. Mazel, Y. Xolopov, V. Xolopova, N. Ocheretovskaya, M. Lobanova, T. Chernova<sup>3</sup> va boshqa musiqashunoslarning asarlarida aks ettirilgan.

---

<sup>2</sup> Бараш Д. Зачем помнить историческое прошлое? // Философский журнал | Philosophy Journal, 2011. Т. № 1(6). – С. 10–19. (Перевод с английского З. А. Заритовской); Хаттон П. История как искусство памяти. – Санкт-Петербург: 2004; Лекторский В. Индивидуальная и коллективная память: старые проблемы и новые вызовы // Вопросы философии, 2000. № 6. – С. 11–17; Мысливец Н. Память коллективная Versus память индивидуальная: к вопросу о симфоничности // Журнал Белорусского государственного университета. Социология, 2018. № 4. – С. 65–74; Репина Л. События и образы прошлого в исторической и культурной памяти // Новое прошлое, 2016. № 1. – С. 82–99; Герасимов Г. Прошлое как объект истории // Genesis: исторические исследования, 2017. № 10. – С. 1–19; Савельева И., Полетаев А. “Историческая память”: к вопросу о границах понятия // Феномен прошлого // <https://openuni.io/course/12-course-7-5/lesson/1/material/885/>; Тощенко Ж. Историческое сознание и историческая память: анализ современного состояния // Новая и новейшая история, 2000. № 4. – С. 3–14; Расулова Т. Амир Тимур. Светоч Азии, или знаки судьбы Сахибкирана (опыт исторической реконструкции образа). - Ташкент: 2011.

<sup>3</sup> Сохор А. Музыка как вид искусства. – Санкт-Петербург: 2018; Кремлёв Ю. Выразительность и изобразительность музыки. - Москва: 1962; Кремлёв Ю. Очерки по эстетике музыки. - Москва: 1972; Кремлёв Ю. Интонация и образ в музыке // Избранные статьи. - Ленинград: 1976. – С. 58–70; Асафьев Б. Музыкальная форма как процесс. Книга 1. - Ленинград: 1971; Медушевский В. Интонационная форма музыки. - Москва: 1993; Назайкинский Е. Понятия и термины в теории музыки // Методологические проблемы музыкознания. Сборник статей. - Москва: 1987. – С. 151–177; Назайкинский Е. Логика музыкальной композиции. - Москва: 1982; Назайкинский Е. Звуковой мир музыки. - Москва: 1988; Смирнов М. Эмоциональный мир музыки. - Москва: 1990; Мазель Л. Вопросы анализа музыки. Опыт сближения теоретического музыкознания и эстетики. - Москва: 1978; Мазель Л. О природе и средствах музыки. - Москва: 1983; Мазель Л. Вопросы анализа музыки. - Москва: 1978; Холопов Ю. Очерки современной гармонии. - Москва: 1974; Холопова В. Теория музыки: мелодика, ритмика, фактура, тематизм. – Санкт-Петербург: 2010; Очеретовская Н. Содержание и форма в музыке. – Ленинград: 1985; Лобанова М. Музыкальный стиль и жанр: история и современность. - Москва: 1990; Чернова Т. Драматургия в инструментальной музыке. - Москва: 1984.

Tarixiy o‘tmish obrazlari mavzusini o‘rganishga N. Yanov-Yanovskaya, T. G‘ofurbekov, R. Abdullayev, Y. Nosirova<sup>4</sup>, F. Muxtorova<sup>5</sup>, E. Mamajonova, S. Qosimxo‘jayeva<sup>6</sup>, Sh.Ganixanova<sup>7</sup>, T. Davidova<sup>8</sup>, R. Tursunova<sup>9</sup> kabi o‘zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlari salmoqli hissa qo‘shgan. Tadqiqotchilarning ishlarida dissertant tomonidan e‘tiborga olingan tarixiy muammolarning keng doirasi ochib berilgan.

N. Yanov-Yanovskaya<sup>10</sup>ning asarlarida o‘zbek madaniyati, musiqa janrlarining rivojlanish yo‘llari, milliy kompozitorlik maktabining buyuk vakillari ijodiyoti atroflicha tadqiq etilgan. Olimaning asarlari jamiyatimiz madaniy-tarixiy taraqqiyotining o‘zgaruvchan manzarasini chuqur anglashning yaqqol ifodasi hisoblanadi.

T. G‘ofurbekov<sup>11</sup>ning tadqiqotlarida O‘zbekiston musiqa san’ati rivojlanishining ilmiy yo‘nalishlari belgilab berilgan. “XX–XXI asr boshlaridagi tarixiy voqeliklar kontekstida “Musiqqa tarixi” kursi” maqolasida muallif tomonidan ilgari surilgan qoida va xulosalarda tarixiy musiqashunoslik sohasidagi izlanishlarning istiqbollari ochib berilgan.

---

<sup>4</sup> Насырова Ю. Функциональный метод научной теории культуры. Культурология – Музыказнание // Искусство в формировании гармонично-развитого поколения. Ежегодник 2010. - Ташкент: 2010. – С. 34 – 40.

<sup>5</sup> Мухтарова Ф. Полифония в творчестве композиторов Узбекистана, Таджикистана, Туркменистана (60–80-е годы). - Ташкент: 1993.

<sup>6</sup> Касымходжаева С. У истоков музыкального образования Узбекистана // Музыкальное образование XXI века: проблемы и решения. Материалы международной научно-практической конференции. - Ташкент: 2014. – С. 86–90.

<sup>7</sup> Ганиханова Ш. Аваз Мансуров. Монографический очерк. – Ташкент: 2008; Ганиханова Ш. Прикладные жанры в контексте формирования национального стиля в творчестве композиторов Узбекистана. Монография. – Ташкент: 2021.

<sup>8</sup> Давыдова Т. Современное состояние симфонического творчества (на примере жанра симфонии) // Узбекская музыка на стыке столетий (XX–XXI вв.): тенденции, проблемы. Коллективная монография. - Ташкент: 2008. – С. 53–66.

<sup>9</sup> Турсунова Р. Образ Амира Темура в западноевропейской опере // Автореферат доктора философии (PhD) по искусствоведению. - Ташкент: 2020; Tursunova R. G‘arbiy Yevropa operalarida Amir Temur obrazi. - Toshkent: 2021; Турсунова Р. Образ Амира Темура в музыкальном наследии композиторов Западной Европы // Проблемы современной науки, 2019. – С. 88–91.

<sup>10</sup> Янов-Яновская Н. Узбекская музыка и XX век. - Ташкент: 2007; Янов-Яновская Н. Узбекская симфоническая музыка. -Ташкент: 1979; Янов-Яновская Н. Предисловие (О морфологии современной узбекской музыки) // Узбекская музыка на стыке столетий (XX–XXI вв.): тенденции, проблемы. - Ташкент: 2008. – С. 4–8; Янов-Яновская Н. Композитор Икрам Акбаров. - Ташкент: 2011; Янов-Яновская Н. Теория интертекста в ее проекции на восточную музыку. - Ташкент: 2019.

<sup>11</sup> Гафурбеков Т. Музыкальное искусство во времена Амира Темура и Темуридов // Общественные науки в Узбекистане. - Ташкент: 1996. № 7 – 10. – С. 121–128; G‘ofurbekov T. Musiqqa // Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san’at. -Toshkent: 1996. – В. 34–44; Гафурбеков Т. Курс “Истории музыки” в контексте исторических реалий: XX – начало XXI вв. // Музыка – моя вселенная. - Ташкент: 2015. – С. 12–16; Гафурбеков Т. Музыкальная палитра Узбекистана рубежа XX–XXI столетий в реалиях Евразии // Тухтасин Гафурбеков в воззрениях современников. - Ташкент: 2021. – С. 82–92.

R. Abdullayev<sup>12</sup>ning tadqiqotlarida tarixiy xotira, milliy o'ziga xoslik, davr ilgari surayotgan vazifalar nuqtayi nazaridan musiqa madaniyatlarining o'zaro ta'siri va o'zaro boyishi bilan bog'liq masalalar yoritib berilgan. Musiqashunos ishlarining tarixiy mazmun-mohiyati o'tmish va hozirgi zamon o'rtasidagi bog'lanish jarayonlarini aniqlashda vektor bo'lib xizmat qilmoqda.

E. Mamadjanova<sup>13</sup>ning asarlarida zamonaviy olamdagi kompozitorlik ijodiyoti jarayonlari bo'yicha qimmatli tahliliy kuzatishlar mavjud, shuningdek, atrof-voqelikning rivojlanishi va ijtimoiylashuvi dinamikasi hamda ularning musiqa san'atiga ta'siri masalalariga to'xtalib o'tilgan. Olima asarlarida milliy madaniyatlarning o'zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitish tendensiyalari ochib berilgan bo'lib, bu muallifga o'tmish va hozirgi zamon hamohangligining to'liq manzarasini yaratish imkonini bergan.

Tarixiy o'tmish va tarixiy xotira mavzusini o'rganish ishiga musiqashunoslarning asarlari bilan bir qatorda san'atshunos olimlar G. Pugachenkova, L. Rempel, O. Galerkina<sup>14</sup>, E. Rtveladze<sup>15</sup>, A. Hakimov<sup>16</sup> va N. Ahmedova<sup>17</sup> bebaho hissa qo'shganlar. Ularning asarlarida tarixiy-axborot, estetik-badiiy, semantik, madaniy materiallar mavjud.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat konservatoriyasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Milliy va jahon musiqa san'atida professional kadrlar tayyorlashning ilmiy-ijodiy prinsiplari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekiston kompozitorlarining mustaqillik yillaridagi cholg'u ijodida tarixiy o'tmish obrazlarini ochib berishdan iborat.

---

<sup>12</sup> Абдуллаев Р. Обряд и музыка в контексте культуры Узбекистана и Центральной Азии. - Ташкент: 2006; Абдуллаев Р. Дилором Сайдаминова: обновление традиций – путь к созданию новых традиций // Дилором Сайдаминова. Жизнь в гамме звуков. (Монографический сборник). - Ташкент: 2019. – С. 35–37; Абдуллаев Р. Основы узбекской традиционной музыки. Монография. - Ташкент: 2022.

<sup>13</sup> Мамаджанова Э. Воплощение внутривосточной тематики в творчестве композиторов Узбекистана: методы, эволюция // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. - Ташкент: 1991; Мамаджанова Э. Творчество композиторов Узбекистана для Государственного камерного оркестра национальных инструментов "Согдиана" // Вопросы музыкального исполнительства и педагогики. Выпуск VI. - Ташкент: 2009. – С. 67–84; Мамаджанова Э. Творчество композиторов Узбекистана в эпоху глобализации: традиции в цифровой эре // Актуальные вопросы узбекского музыкального искусства. - Ташкент: 2020. – С. 32–38.

<sup>14</sup> Пугаченкова Г., Ремпель Л. История искусств Узбекистана. - Москва: 1965; Пугаченкова Г., Галеркина О. Миниатюры Средней Азии. - Москва: 1979.

<sup>15</sup> Ртвеладзе Э. Великий шелковый путь: Энциклопедический справочник: Древность и раннее средневековье. - Ташкент: 1999; Ртвеладзе Э. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. - Ташкент: 2005.

<sup>16</sup> Хакимов А. Коллоквиум III: историко-культурный, социальный и художественный контекст идентичности // Искусство Узбекистана: динамика идентичности. Материалы Коллоквиума III. Коллоквиум состоялся 14 марта 2007 года. - Ташкент: 2007. – С. 6–15; Хакимов А. История искусств Узбекистана. - Ташкент: 2018.

<sup>17</sup> Ахмедова Н. Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог. - Ташкент: 2004.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

tarixiy o‘tmish obrazlarini tadqiq etish metodologiyasini aniqlash;  
kompozitorlarning tarixiy shaxslar obrazini gavdalantirishga ijodiy yondashuvlarini ochib berish;

musiqiy ifoda vositalarining xususiyatlarini aniqlash;  
tadqiqot natijalarini ularning tarixiy-badiiy ahamiyati jihatidan umumlashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** O‘zbekiston kompozitorlarining cholg‘u ijodida tarixiy o‘tmishning musiqiy obrazlarini ochib berish hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** tarixiy o‘tmish obrazlarini yaratish jarayonida kompozitorlar tomonidan foydalanilgan kompleks ifoda vositalari, tuzilmaviy va semantik xususiyatlar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tarixiy-retrospektiv, tizimli-tahliliy, qiyosiy-taqqoslash va kompleks ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

M. Bafoyevning asarlarida Buyuk ipak yo‘li obrazlarini gavdalantirishga, M. Bafoyevning “Alpomishga bag‘ishlov” asaridagi badiiy-epik ibtidoaga, D. Saydaminovanning “Xayyom bilan suhbat” fortepiano turkumidagi lirik-falsafiy obrazlilikka, O. Abdullayevaning “Jadidlar xotirasi” 2-simfoniyasidagi g‘oyaviy-ma’rifiy mohiyatga, D. Saydaminova, M. Bafoyev, A. Safarovlarning instrumental asarlarida Amir Temur obrazi ramziy-semantik talqinining ma’naviy-axloqiy qadriyatlariga tarixiy-retrospektiv yondashuvlari isbotlangan;

A. Mansurovning “Moziydan sado” poema-fantaziya asarining syujetli dramaturgiyasida ifodaviy vositalarning uslubiy majmualaridagi asosiy tarkibi, zamonaviy kompozitorlik texnikalari (aleatorika, minimalizm, sonorizm) va an’anaviy musiqa namunalarining (“Samarqand Ushshog‘i”, “Cho‘li Iroq”) sintezi kuzatilgan;

cholg‘u janrlaridan pyesa, fantaziya, poema, fortepiano turkumi, konsert, simfoniyalarda o‘tmishdagi tarixiy obrazlarni gavdalantirishda zamonaviy talqin nuqtayi nazaridan individual-majmuaviy uslub, semantik yondashuvlar kabi o‘ziga xos mazmun koordinatalari mavjudligi asoslab berilgan;

D. Saydaminovanning “Xayyom bilan suhbat”, M. Bafoyevning “Tagorga bag‘ishlov” asarlarida o‘tmishning buyuk mutafakkirlari obrazlariga kompozitorlarning shaxsiy qarashlari kontekstida “musiqiy individual tarixiy xotira” hamda I. Akbarov, S. Jalil, D. Saydaminova, M. Bafoyev va A. Safarovlarning ijodida Amir Temur obrazini ijtimoiy idrok etish darajasida ko‘rib chiqilgan “musiqiy jamoaviy tarixiy xotira” tushunchalari ilmiy doiraga kiritilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

musiqiy-tarixiy fanlar mazmunini zamonaviy o‘zbek kompozitorlarining tarixiy o‘tmish obrazlariga bag‘ishlangan va uzluksiz ta’lim tizimida shaxsning insonparvarlik dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradigan instrumental asarlari bilan to‘ldirgan;

zamonaviy san'atshunoslik tadqiqotlarining ilmiy tushuncha apparatini kengaytirgan, buning natijasida tarixiy o'tmish obrazlari badiiy-ijodiy konsepsiyalarda yanada chuqurroq ochib berilgan;

kompozitor ijodiyotining tarixan shakllangan instrumental janrlarini syujetli dramaturgiyaning yangicha talqinlari, semantik va ramziy assotsiatsiyalar, ma'noviy umumlashmalar bilan boyitganligi dalillangan;

makon va zamon kategoriyalarini individual anglashda tarixiy o'tmish obrazlariga kompozitorlar qarashlarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan ifoda vositalari va yozuv texnikasi tizimining badiiy-ijodiy resurslari yangilangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** dissertatsiya muallifi tomonidan tahlil qilingan, jamoatchilik tomonidan yuqori baholangan va e'tirof etilgan asarlarning g'oyaviy-badiiy ahamiyati, tadqiqot natijalaridan o'quv jarayonida foydalanilishi va ularning konsert-ijrochilik amaliyotida ahamiyatga molikligi bilan belgilanadi. Olingan natijalarning ahamiyati ilmiy to'plam va jurnallarda chop etilgan maqolalarda, respublika va xalqaro ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy konferensiyalardagi ma'ruzalarda o'z ifodasini topgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, nazariy xulosalar zamonaviy musiqashunoslikda mavjud ma'lumotlarni kengaytiradi va to'ldiradi, tarixiy o'tmish obrazlarining mohiyatini chuqur anglash imkonini beradi. Ushbu dissertatsiya ishining asosiy qoida va xulosalari istiqbolda tarixiy o'tmish obrazlari va tarixiy xotirani tadqiq etish uchun metodologik ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishning xulosa va natijalaridan "O'zbek musiqasi tarixi", "Zamonaviy musiqqa", "Musiqiy tanqid", "Musiqiy adabiyot" kabi o'quv fanlari kurslarida foydalanilganligidadir. Tadqiqotdan olingan natijalar tarixiy mavzuda asarlar yaratuvchi kompozitorlar uchun muhim ijodiy-amaliy ahamiyatga ega. Dissertatsiya materiallari o'zbek musiqasi bo'yicha o'quv dasturlari, darsliklar, uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy etilishi** quyidagilardan iborat:

M. Bafoyevning asarlarida Buyuk ipak yo'li obrazlarini gavdalantirishga, M. Bafoyevning "Alpomishga bag'ishlov" asaridagi badiiy-epik ibtidoaga, D. Saydaminovanning "Xayyom bilan suhbat" fortepiano turkumidagi lirik-falsafiy obrazlilikka, O. Abdullayevaning "Jadidlar xotirasi" 2-simfoniyasidagi g'oyaviy-ma'rifiy mohiyatga, D. Saydaminova, M. Bafoyev, A. Safarovlarning instrumental asarlarida Amir Temur obrazi ramziy-semantik talqinining ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga tarixiy-retrospektiv yondashuvlarini tadqiq etishdan olingan natijalardan "Yoshlar" radiokanalida Go'zalbegim Xolibayevaning 2024-yil 11-fevralda efirga uzatilgan "Saralanganlarga qo'shing" dasturi ssenariysida foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 4-martdagi 14-05-24/1-son ma'lumotnomasi). Natijada yosh musiqashunoslar M. Bafoyev, D. Saydaminova, O. Abdullayeva kabi kompozitorlar asarlari mohiyatini anglashga xizmat qilgan;

A. Mansurovning “Moziydan sado” poema-fantaziya asarining syujetli dramaturgiyasida ifodaviy vositalarning uslubiy majmualaridagi asosiy tarkibi, zamonaviy kompozitorlik texnikalari (aleatorika, minimalizm, sonorizm) va an’anaviy musiqa namunalari (“Samarqand Ushshog‘i”, “Cho‘li Iroq”) sintezi O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining ma’ruzasi matnida bayon qilingan (O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining 2021-yil 19-oktabrdagi 01-04/115-198-son ma’lumotnomasi). Natijada tinglovchilar O. Abdullayevning ma’rifatparvar jadidlarning fojiali taqdiri, ularning orzu-umidlari va ma’rifatga intilishlari aks ettirilgan “Jadidlar xotirasi” 2-simfoniyasida jadidlar obrazining gavdalantirilishi to‘g‘risida ilmiy ma’lumotlarga ega bo‘ldilar;

cholg‘u janrlaridan pyesa, fantaziya, poema, fortepiano turkumi, konsert, simfoniyalarda o‘tmishdagi tarixiy obrazlarni gavdalantirishda zamonaviy talqin nuqtayi nazaridan individual-majmuaviy uslub, semantik yondashuvlar kabi o‘ziga xos mazmuniy koordinatalari mavjudligi O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasida tinglovchilarning keng doirasi uchun “O‘zbekiston kompozitorlik ijodiyotida Sharq allomalari va mutafakkirlari obrazlari” mavzusidagi ma’ruza matnida bayon qilingan (O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining 2021-yil 19-oktabrdagi 01-04/115-198-son ma’lumotnomasi). Natijada tinglovchilar kompozitorlarning tarixiy obrazlarni yaratishdagi turli ijodiy yondashuvlari haqida qiziqarli ilmiy ma’lumotlarga ega bo‘lganlar;

D. Saydaminovning “Xayyom bilan suhbat”, M. Bafoyevning “Tagorga bag‘ishlov” asarlarida o‘tmishning buyuk mutafakkirlari obrazlariga kompozitorlarning shaxsiy qarashlari kontekstida “musiqiy individual tarixiy xotira” hamda I. Akbarov, S. Jalil, D. Saydaminova, M. Bafoyev va A. Safarovlarning ijodida Amir Temur obrazini ijtimoiy idrok etish darajasida ko‘rib chiqilgan “musiqiy jamoaviy tarixiy xotira” tushunchalari “O‘zbekiston-24” radiokanalining Sevil Jabborova hamkorligida 2022-yil 27-aprel kuni efirga uzatilgan “O‘zbekiston yoshlari” dasturida yangragan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 5-maydagi 03-09-250-son ma’lumotnomasi). Natijada bu radiotinglovchilarga xalqning madaniy qadriyatlarini qayta tiklash, O‘zbekiston kompozitorlik ijodiyotida tarixiy mavzular va tarixiy o‘tmish obrazlarining ahamiyatini anglashda yordam bergan.

**Tadqiqotning aprobatsiyasi.** Tadqiqotning asosiy qoidalari va natijalari dissertatsiya muallifi tomonidan 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida taqdim etilgan hamda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarini nashr etish.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 23 ta ilmiy ish e’lon qilingan, ulardan 6 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini yoritish uchun tavsiya etilgan jurnallarda, xususan, 3 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnalda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 130 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** tanlangan mavzuning zamonaviy san’atshunoslik ilmi rivojidadagi dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, o‘rganilganlik darajasi, metodologik bazasi, ilmiy-nazariy yangiligi tavsiflangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati aniqlangan, ishning aprobatsiyasi va tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston kompozitorlari ijodida tarixiy o‘tmish obrazlarini gavdalantirishni o‘rganishning metodologik jihatlari”** mavzusidagi birinchi bobi metodologik yo‘nalishga ega va ilmiy tadqiqotning bazaviy usullari tavsiflarini o‘z ichiga olgan:

### 1.1. jadval:

#### Ilmiy tadqiqotning bazaviy usullari

Tarixiy-retrospektiv	Tizimli-tahliliy	Qiyosiy-taqqoslash	Kompleks
tarixiy rivojlanish jarayonlarini o‘rganish;	obyektni komponentlar tizimi sifatida ko‘rib chiqish;	o‘xshash va turli tuzilmali parametrlarni tadqiq etish;	tarixiy obrazni gavdalantirishni har tomonlama va ko‘p darajali o‘rganish;
o‘tmish va zamonaviylik o‘rtasida aloqa o‘rnatish;	sabab-oqibat munosabatlari va qonuniyatlarini aniqlash;	umumiy va farqlovchi xususiyatlar hamda belgilarni aniqlash;	turli xil bilim sohalarining tushunchaviy apparatini qo‘llash;
rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etish;	kompozitorlik talqinlarining tahlili;	bir kompozitor ijodidagi tarixiy obrazning evolyutsiyasi;	obrazni yaratishda ifodali vositalar yig‘indisining ahamiyati;
jamoatchilik pozitsiyasini aks ettirish shakllarini aniqlash.	tahliliy kuzatishlarni tizimlashtirish.	o‘tmishning tarixiy obrazini turli kompozitorlar tomonidan individual talqin etish.	asarning yaxlit konsepsiyasini yaratishda ko‘p darajali parametrlarning roli.

**“Tadqiqotning tushunchaviy apparati to‘g‘risida”** nomli 1.1.-paragrafda san’atda obrazning mohiyatini ijodiyotning yalpi kategoriyasi sifatida ochib beradigan ilmiy izlanishlar taqdim etilgan. Musiqa san’atida obrazlar orqali

o‘tmish madaniyati, xalq tarixi, atrofdagi olam aks ettiriladi. Musiqiy obrazni yaratish g‘oyaviy-badiiy mazmun, mavzu, fakturali bezak, musiqiy ifoda vositalari, yozish texnikasini nazarda tutadi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi jihatidan o‘z tarkibiga kompozitorlar tomonidan badiiy gavdalantirilgan o‘tmishning turli-tuman muvaqqat voqeliklarini qamrab oladigan **tarixiy o‘tmishning musiqiy obrazi** tushunchasi taklif etilmoqda. Kompozitorlarning o‘tmish davri g‘oyalarini musiqada aks ettirishga intilishi tarixiy obrazlarning individual talqin qilinishiga bog‘liq. Kompozitorlarning o‘tmish va zamonaviylik o‘rtasidagi assotsiativ parallelliklarni o‘tkazishlari ularning badiiy tasavvurlarida o‘tmish obrazlarini faollashtiradi. Kompozitorlar ongida vujudga keladigan obrazli assotsiatsiyalar murakkab va ko‘p ma‘noli semantik shakllarga ega bo‘ladi.

Tarixiy o‘tmishning musiqiy obrazini quyidagi mezonlar tavsiflaydi: g‘oyaviy pozitsiya, yuksak ma‘naviyat, his-tuyg‘ular boyligi, axborot ko‘lamining kengligi, tasviriylik va ifodaviylik birikmasi san’atda tarixiy obrazni kengroq ko‘lamda gavdalantirishga yordam beradi. Tarixiy o‘tmishning musiqiy obrazi sohasini kompleks voqelik sifatida o‘rganish uchun quyidagi sxema taklif etiladi:



Badiiy ijodiyotda o‘tmish obrazlariga murojaat qilish odatda ijtimoiy o‘zgarishlar va manfaatlar to‘qnashuvi davrlarida sodir bo‘ladi. Aynan mana shunday davrlarda tarixiy obraz xalq tarixining ramziy ovozi aylanadi.

Tarixiy xotira o‘tmishni hozirgi zamonda saqlash va aks ettirishning ko‘plab jihatlarini o‘z ichiga oladi. Tarixiy xotirani tadqiq etish masalalari bilan bu voqelikni turli tomonlardan ko‘rib chiqadigan tarixchilar, faylasuflar, sotsiologlar shug‘ullanadilar. M. Xalbvaks, Y. Lotman, D. Barash, I. Savelyeva, A. Poletayev, L. Repina, N. Mislives va boshqalarning asarlarida tarixiy xotiraning individual va jamoaviy turlarga bo‘linishi uchraydi. Dissertatsiya muallifi tushunchaning sifatlariga tayangan holda ularni O‘zbekiston kompozitorlik ijodiyotida tarixiy o‘tmish obrazlari gavdalantirilishini o‘rganishga moslashtiradi.

**Musiqiy individual tarixiy xotira** bu – kompozitorning ijodiy ongida o‘tmish haqidagi tasavvurni va tarixiy obrazlarning individual emotsional bo‘yoqlardagi

talqinlarini tavsiflovchi tushuncha. U san'atning rivojlanishida madaniy-tarixiy jarayonlarni aks ettiradi va musiqiy asarlar, memuarlar, kundaliklar, xotiralar, shaxsiy xarakterdagi bag'ishlovlarning yaratilishiga yordam beradi.

Musiqiy individual xotira fenomeni shundan iboratki, bunda kompozitor ma'naviy va estetik sifatlar bo'yicha o'ziga yaqin tarixiy obrazni topadi, u kompozitor hayotining bir qismiga aylanadi va ijodkor uning badiiy obrazini o'z ijodida uzoq vaqt davomida gavdalantiradi. Bu kompozitor ijodida tarixiy o'tmishning turli qirralarini ochib beradigan makromavzuning paydo bo'lishiga olib keladi.

Musiqiy individual tarixiy xotiraning namoyon bo'lishiga Mutal Burhonov ijodida Alisher Navoiy obrazining gavdalantirilishi yorqin misol bo'la oladi. U o'z hayoti davomida kompozitorlik ijodiyotining A.Navoiy g'azallariga "Tabassum qilmading" romansidan tortib "Alisher Navoiy" musiqali dramasi, A. Oripov she'rlariga so'z ustasi, solist, xor va orkestr uchun "Alisher Navoiyga qasida" va "Alisher Navoiy" operasigacha bo'lgan turli janrlarida buyuk shoir obrazini yaratdi.

Musiqiy individual tarixiy xotiraning o'zgacha gavdalantirilishi Mustafobafoyev ijodida Buyuk ipak yo'li tarixiy obrazlarining ochib berilishida yaqqol ko'rinadi. U ijodiy evolyutsiya jarayonida nafaqat ijodiy ilhom, fantaziya va tasavvurning bitmas-tuganmas manbalarini, balki tarixiy obrazlarni yaratishdagi falsafiy tafakkur ko'lamining naqadar kengligini ham namoyon etdi, bu esa zamonaviy kompozitorlik ijodiyotining fortepiano, xalq cholg'ulari, ovoz va sintezator uchun "Buyuk ipak yo'li" shou-baleti, violonchel, torli kvintet, zarbli cholg'ular va fortepiano uchun "Ipak yo'lidagi xayollar" konserti, fortepiano uchun "Buyuk ipak yo'li" mavzusidagi 10 ta poema kabi noyob namunalarning yaratilishiga olib keldi.

**Musiqiy jamoaviy tarixiy xotira** – kompozitorlik ijodiyotida o'tmish haqidagi tasavvurlarni, tarixiy obrazlarga nisbatan estetik-badiiy qarashlarning ma'noviy umumlashmalarini jamiyatning g'oyaviy pozitsiyasi nuqtayi nazaridan tavsiflovchi tushuncha. U musiqaviy o'lchovda kommunikativ tarixiy tajribaning mavjudligini nazarda tutadi va musiqiy-badiiy ongning bevosita ifodasi hisoblanadi.

Jamoaviy xotirani alohida shaxslarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. U individual xotiradan individlarni bitta umumiy g'oya bilan birlashtirishi orqali farqlanadi. Jamoaviy tarixiy xotira bu – olomon emas, umumiy odamlar ommasi ham emas, balki yagona ma'naviy-axloqiy va estetik pozitsiya bilan birlashgan shaxslardir. U ijtimoiy-jamoaviy ongda shaxslar omilini jamlaydi. Bu yerda muhim yubiley sanalarining o'tkazilganligiga e'tibor qaratish muhim: Alisher Navoiy (1991, 2021), Ahmad Yassaviy (1993), Mirzo Ulug'bek (1994), Ibn Sino (1995), Amir Temur (1996, 2016), Jaloliddin Manguberdi (1999), "Alpomish" dostoni yaratilishining 1000 yilligi (1999). Yubileylar bilan bog'liq voqealar ijodiy g'oyalarga samarali ta'sir ko'rsatadi va san'at asarlarini yaratishga rag'bat bo'lib xizmat qiladi.

**"Tarixiy o'tmish obrazlarini gavdalantirishga kompozitorlarning ijodiy yondashuvlari"** nomli 1.2.-paragrafda kompozitorlarning tarixiy o'tmish obrazlari talqiniga turli ijodiy yondashuvlari ko'rib chiqildi. Ijodiy jarayon va uning qonuniyatlarini o'rganish individuallik va betakrorlik omilini birinchi o'ringa

suradi. Dissertatsiya muallifining kompozitorlar bilan bo‘lgan suhbatlari davomida kompozitorlar tarixiy obrazlarni yaratishda tayangan quyidagi mezonlar aniqlandi:

- ijodiy jarayon – tarixiy o‘tmish obrazini yaratish uchun ma’naviy ehtiyojlar majmui sifatida. U kompozitorning hissiy-aqliy faoliyati mahsuli va natijasi hisoblanadi;

- badiiy fantaziya – obrazni yaratishda tafakkur va tasavvur o‘rtasidagi bog‘liqlik fenomeni sifatida. Bunda kompozitor axborotni subyektiv qayta anglash asosida uni musiqada gavdalantirishga intiladi;

- madaniyatlarning integratsiyaga olib keladigan o‘zaro muloqoti. Buning natijasida davrlar sintezi, falsafiy va virtual yangi tajribaga ega bo‘lish yuz beradi. O‘zaro muloqot jarayoni bu – shaxsning rivojlanish, shakllanish, yangilanish va xronotop chegarasidan chiqish jarayoni;

- yaratilgan asarni qayta anglash o‘z shaxsiy asarining dastlabki fikr va g‘oyaga muvofiqligini baholash qobiliyati sifatida. Ijodkorga nafaqat o‘z g‘oyasini ifoda etish, balki yaratgan asariga aks sado olish ham zarur hisoblanadi, chunki bu kompozitorning o‘tmishni gavdalantirishdek murakkab jarayonda tanilishiga imkon beradi. Bularning barchasiga ijodiy tasavvur kompozitor ongi bilan nazorat qilingan holdagina imkon bo‘ladi;

- ijodkorning individualligi ijodiyotda shaxsning tabiatini ochib berish sifatida tushuniladi. Ayni vaqtda obrazni yaratish jarayonida o‘z shaxsiy “Men”ni yo‘qotmaslik muhim ahamiyatga ega.

Olis davrning aks sadosi sifatida tarixiy o‘tmish obrazini badiiy gavdalantirishning yorqin umumlashmalaridan biri A. Mansurovning “So‘g‘diyona” o‘zbek xalq cholg‘ulari kamer orkestri uchun “Moziydan sado” poema-fantaziyasi hisoblanadi. Uning musiqasi tinglovchini uzoq o‘tmish voqealari haqidagi epik hikoya muhitiga g‘arq qiladi. Asar unda nafaqat uzoq o‘tmish, balki zamonamiz obrazlari ham gavdalantirilganligi bilan qiziqarlidir.

A. Mansurovning “Moziydan sado” asarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalar qilindi: poema va fantaziya janrlarining sintezi turli davr madaniyatlarining o‘zaro muloqoti va zamonlar bog‘lanishi nuqtayi nazaridan musiqaning badiiy-estetik o‘ziga xos epik mazmunini belgilab bergan; o‘tmish obrazlari kompozitor tomonidan tarixiy retrospeksiya zamonaviy nuqtayi nazardan qayta anglangan; turli-tuman musiqiy ifoda vositalari, sonorika, aleatorika, minimalizm, ritmik nutqiy qo‘shiqlardan foydalanish kompozitorga asarning g‘oyasini badiiy-ishonarli tarzda yoritishga va o‘zbek musiqa san‘atida yangi yo‘llarni ochishga imkon bergan; kompozitor asarning ixcham tuzilmasida borliq tarixiy paradigmasining keng qamrovli mohiyatini badiiy jihatdan to‘la ochib berishga muvaffaq bo‘lgan.

Tarixiy o‘tmish obrazlarini ochib berishga o‘zgacha ijodiy yondashuv M. Bafoyevning fortepiano uchun “Alpomishga bag‘ishlov” (2009) beshta fantaziyasida aniqlandi. Turkumda ifodali-tasviriy va epik tamoyillar birinchi o‘rinda turadi. “Baxshi” deb nomlangan birinchi qismda o‘tgan kunlardagi epik voqealarni hikoya qiluvchi xalq baxshisi obrazi tasvirlangan. Bu yerda kompozitor retrospeksiya usuliga murojaat qilib, dostonlarga xos ohang, ritm va tasviriy usullar orqali o‘tmishni gavdalantiradi, baxshining kuylashiga qo‘bizda taqlid qiladi. “Boysun” deb nomlangan ikkinchi qism epik o‘tmish manzarasi obrazidir. Bu pyesada M. Bafoyevning impressionistik qarashlari prizmasi orqali aks

ettirilgan qadimiy madaniyat ochib beriladi. Uchinchi qism – “Yalmog‘iz kampir” makkorlik va yovuzlik obrazi bo‘lib, u past registrning ifodali vositalari, sinkopik ritm, pasayuvchi ohang harakati orqali ochib berilgan. “Barchinoy” deb nomlangan to‘rtinchi qism Alpomish mahbubasining poetik-lirik obrazi hisoblanadi. Uning obrazi dinamik rivojlanishda berilgan. Dastlab muloyim, oliyjanob qiz Yalmog‘iz kampir tomonidan o‘g‘irlab ketilgach, mardona, jangovar xarakterga ega bo‘ladi. “Alpomish”ning beshinchi qismida qudratli kuchga ega bo‘lgan bahodir obrazi yaratilgan. Bu qism butun turkumning dramatik markazi va kulminatsion nuqtasi hisoblanadi. Kompozitorning *epico* belgisi musiqaning epik hikoyasini bildiradi. Butun qism oldingi obrazlarning turli elementlarini jamlashtirgan bo‘lib, bu yerda baxshi va otlar poygasi, tabiat manzaralari, Barchinoy va Yalmog‘iz kampir obrazlari keltirilgan. Bu turkumning eng katta ko‘lamli qismi bo‘lib, Alpomish va o‘zbek epik eposining apofeozi hisoblanadi. Turkumning har bir qismi ma‘lum bir obrazning timsoli bo‘lib, musiqiy semantika, tembrli-koloristik dramaturgiyaning xususiyatlari yordamida ochib beriladi.

M. Bafoevning “Alpomishga bag‘ishlov” beshta fantaziyasini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: kompozitorning fantaziya janriga innovatsion yondashuvi teatrlashtirilgan turkum kompozitsiyaning yaratilishiga olib keldi; kompozitorning epik rivoyat mohiyatini talqin qilishga ijodiy yondashuvi rang-barang bo‘yoqli obrazli manzaralar va shaxsiylashtirilgan portret-obrazilarni ochib berish imkonini berdi; asarning instrumental dramaturgiyasini yaratishda impressionistik tovush ifodalari ustuvor bo‘ldi.

**“Buyuk ipak yo‘li obrazlarini gavalantirishga tarixiy-retrospektiv yondashuv”** mavzusidagi 1.3.-paragrafda M. Bafoevning pianino, xalq cholg‘ulari, ovozlar va sintezator uchun “Buyuk ipak yo‘li” shou-baleti (1995), violonchel, torli kvintet, zarbli cholg‘ular va fortepiano uchun “Ipak yo‘lidagi xayollar” konserti hamda fortepiano uchun “Buyuk ipak yo‘li” mavzusidagi 10 ta poemasi kabi qator asarlari ko‘rib chiqiladi. Bu asarlarning har birida turli milliy madaniyatlarga xos bo‘lgan har xil syujetli fabulalar, mujassamlangan fikrlar, ohang va ritmlar kompozitorning individual o‘qishlarida ochib beriladi.

Tahlil qilingan asarlarda kompozitorning ushbu mavzuga keng miqyosdagi tarixiy yondashuvi aniqlandi. M. Bafoevning Buyuk ipak yo‘liga bag‘ishlangan barcha asarlarida ijodkorning o‘tmishga nigohi, epik hikoya qilish, madaniyatlar muloqoti, ma‘naviy funksiyani bajaruvchi “Karvon”, yagona musiqiy-ohangli va ritmik-formula asoslari, rivojlanishning variantli-variatsion usullari, improvizatsiya, o‘zaro bir-birini to‘ldirish kabi umumiy tutash nuqtalar mavjud.

Buyuk ipak yo‘li mavzusi M. Bafoev ijodida davrning keng istiqboli va kompozitorning tarixiy o‘tmish obrazlariga o‘zgaruvchan nigohi nuqtayi nazaridan ochib beriladi. Kompozitor tafakkurining “Buyuk ipak yo‘li” shou-baletidan tortib “Ipak yo‘lidagi xayollar” konserti orqali “Buyuk ipak yo‘li” (10 ta poema) fortepiano turkumigacha bo‘lgan rivojlanishi M. Bafoevning turli janrlardagi asarlari uchligini birlashtiruvchi “Buyuk ipak yo‘li” makroturkumining yaratilishi haqida so‘zlashga imkon beradi. Tashabbuskorlik va ijodiy yondashuvlarning individualligi kompozitorga tarixiy obrazlarni zamonamizning g‘oyaviy va ma‘naviy qadriyatlarini kontekstida yangichasiga idrok etish va talqin qilish imkonini berdi.

Dissertatsiyaning “**Buyuk ma’rifatparvarlar obrazlari individual tarixiy xotirada**” mavzusidagi ikkinchi bobida ma’rifatparvarlar, gumanistlar, shoirlar obrazlariga bag’ishlangan va kompozitorlarning individual yondashuvlarini musiqiy individual tarixiy xotira nuqtayi nazaridan aks ettiruvchi asarlari ko’rib chiqiladi.

“**D. Saydaminovanning “Xayyom bilan suhbat” asari**” mavzusidagi 2.1.-paragrafda kompozitor bilan buyuk mutafakkir o’rtasidagi xayoliy muloqot ochib beriladi. Turkum sakkiz qismli asar bo’lib, monumental lirik-falsafiy freska hisoblanadi. Barcha qismlar haqiqat, hayot falsafasi, borliqning mohiyati, Xudo haqida, koinot qonunlari, go’zallik to’g’risidagi murakkab falsafiy savollarga javob izlash g’oyasi bilan birlashtirilgan. Ushbu muloqot kompozitor ma’naviy olamining umumiy falsafiy-estetik, g’oyaviy asoslarini ochib beradi. D. Saydaminovanning turkumidagi obrazli olam qahramonlari va U. Xayyom davrning keng istiqbolida milliy tarixning bir qismi hisoblanadi.

“Xayyom bilan suhbat” musiqiy obrazlar olami o’ziga zamon ta’siri va kompozitorning ma’naviy olamini singdiradi. Turkumdagi musiqiy obrazlarning tovush tuzilmasi barcha qismlar davomida barqaror saqlanib qoladigan va individual stilistik konstantalar hisoblanadigan ma’lum stilistik usullar majmuiga ega. Bu konstantalar umuman D. Saydaminovanning ijodiga xos bo’lgan kompozitsion-texnik, tembrli-koloristik darajalarda namoyon bo’ladigan o’ziga xos xususiyatlarga ega.

Tadqiqot davomida D. Saydaminovanning “Xayyom bilan suhbat” fortepiano turkumi bo’yicha tahliliy kuzatishlar asosida aniqlangan quyidagi jihatlarni alohida ajratib ko’rsatish lozim: 1. *Sakkiz qismlilik*. Sakkiz raqami bu – Koinot soni, cheksizlik raqami, farovonlik va rohat-farog’at ramzi, o’lim va qayta tug’ilish, karma zanjirlariga tunganmas aylanishlar ramzi. Bu cheksizlik va manguликka bitilgan inson taqdirining muqarrarligi; 2. *Makon va zamon*. Tovush maydonining kengayishiga erishiladi, musiqiy makonni rivojlantirish sharti sifatida zamonning yangi funksiyasi paydo bo’ladi; 3. *Meditativlik, go’zallikni mushohada qilish*. Sharqona idrok etishning xususiyatlari ochib beriladi; 4. *Musiqiy materialning tembrli-koloristik boyligi*. Tovush olami chegaralarini surish omili sifatida sonorikadan foydalaniladi.

Tahlil davomida kompozitorning badiiy g’oyani ochib berishga quyidagilardan iborat ijodiy yondashuvlari aniqlandi: falsafiy yondashuv – makon va zamonning yangicha ma’no kasb etishi; estetik yondashuv – shaxslarning ma’nan yaqinlashuvi; innovatsion yondashuv – tovush olamini talqin qilish.

“**M. Bafoyevning “Tagorga bag’ishlov” asari**” mavzusidagi 2.2.-paragrafda kompozitor ijodining turli jabhalarida Tagor obrazining ko’p qirrali gavdalanishining tahlili taqdim etilgan. Bu “Roja” (1987) musiqiy dramasidan boshlab, to Buyuk ipak yo’liga bag’ishlangan qator asarlarni, shuningdek, ovoz va kamer ansambli uchun “Tagorga bag’ishlov” (2002) poemasi o’z ichiga olgan “Tagorga bag’ishlov” (2007) fortepiano turkumigacha bosib o’tilgan yo’ldir. Shuni ta’kidlash joizki, M. Bafoyev uchun tarixiy xotira mavzusi umuman olganda leytmotiv bo’lib, uning deyarli barcha asarlari mohiyatan tarixiy o’tmish obrazlarining timsoli hisoblanadi.

“Tagorga bag’ishlov” fortepiano turkumi olti qismdan iborat keng ko’lamli konseptual asardir. Unga ish jarayonida ko’p qismli poema sifatida qaraladi.

Kompozitor asarda Tagor shaxsini gavdalantirishga falsafiy-estetik yondashuvdan foydalangan. Fasl qismlarining nomlanishi ma'lum bir semantik ahamiyatga ega bo'lib, u dissertatsiya tadqiqotida turkum musiqasini individual idrok etish asosida ochiladi. M. Bafoyev asar konsepsiyasini ko'p qirrali Tagor shaxsining tug'ilishidan to umrining oxirigacha bo'lgan hayot yo'li asosida quradi.

**“O. Abdullayevaning “Jadidlar xotirasi” 2-simfoniyasi”** mavzusidagi 2.3.-paragrafda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyo hududida jadidlarning madaniy-ma'rifiy faoliyati bilan bog'liq, keskin burilish yasagan murakkab tarixiy voqealar ko'rib chiqilgan va jadidlarning fojiali taqdiriga bag'ishlangan birinchi yirik konseptual simfonik asar tahlil qilingan. Ushbu simfoniyaning noyobligi shundaki, unda kompozitor tomonidan individual tarixiy xotira prizmasi orqali izohlangan jamoaviy obraz yaratishga harakat qilingan. Ushbu asar tarixiy xotira talqiniga ijodiy yondashuv bilan ajralib turadi.

